

Date: 28<sup>th</sup> February-2026

**INGILIZ TILI -GLOBAL TIL. DUNYO BO'YLAB INGILIZ TILINING TURLI  
XIL VARIANTLARI**

**Sobirjonova Nasiba G'ofurjon qizi**

O'zbekiston jahon tillari universiteti

Angren fakulteti, Ingliz filalogiyasi talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola ingliz tilining global til sifatida shakllanishi va dunyo bo'ylab keng turli variantini tahlil qilinadi. Ingliz tilining xalqaro aloqa, ta'lim, fan, texnologiya va biznes sohalaridagi o'rnini yoritadi. Shuningdek, Britaniya ingliz tili, Amerika ingliz tili, Avstraliya va boshqa mintaqaviy variantlarining fonetik, leksik va grammatik farqlarini ko'rib chiqadi. Maqola ingliz tilining global til sifatida ahamiyati hamda uning ko'p variantliligi zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** global til, ingliz tili, Britaniya ingliz tili, Amerika ingliz tili, xalqaro aloqa, lingvistik, fonetik farqlar, leksik farqlar, jahon tillari.

**Kirish.** XX-XXI asrlarda ingliz tili dunyo miqiyosida eng keng tarqalgan va faol qo'llaniladigan tillardan biriga aylanadi. Bugungi kunda u xalqaro aloqa vositasi sifatida fan, texnologiya, diplomatiya, biznes, turizm hamda ta'lim sohalarida muhim o'rin egallaydi. Globallashuv jarayonlari, xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi va axborot texnologiyalarning jadal rivojlanishi ingliz tilining nufuzini yanada ortishiga sabab bo'ldi. Shu sababli ingliz tili nafaqat ona tili sifatida, balki ikkinchini til sifatida ham keng o'rganilmoqda. Biroq Ingliz tili yagona standart shakldan iborat emas. U turli mintaqalarda o'ziga xos talaffuz, leksika va grammatika xususiyatlariga ega bo'lgan ko'plab variantlarda namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada ingliz tilining global til sifatidagi o'rnini hamda dunyoning turli hududlarida shakllangan aksent va variantlarini kengroq tahlil qiladi.

Ingliz tilining global tarqalishi va "World Englishes" tushunchasi. Ingliz tilining dunyo bo'ylab keng tarqalishi natijasida "World Englishes" (Dunyo ingliz tillari) tushunchasi shakllanadi. Bu atama ingliz tilining bir markazli emas, balki ko'p markazli tilga aylanganini anglatadi. Ya'ni ingliz tilining rivoji faqat Buyuk Britaniya yoki AQSH bilan cheklanmaydi, balki Osiyo, Afrika, Avstraliya va boshqa hududlarda ham mustaqil ravishda rivojlanmoqda. Tilshunos B. Kachru ingliz tilini uchta doira (inner circle, outer circle, expanding circle) modeli orqali tushuntiradi. Ichki doira mamlakatiga Buyuk Britaniya, AQSH, Kanada, Avstraliya kabi ingliz tili ona tili bo'lgan davlatlar kiradi. Tashqi doira mamlakatiga (Hindiston, Singapur, Nigeriya va boshqalar) ingliz tili rasmiy yoki ikkinchi til sifatida ishlatiladi. Kengayuvchi doira mamlakatlarida esa ingliz tili xorijiy til sifatida o'rganiladi.

Amerika va Britaniya ingliz tilidan tashqi variantlar. Ko'pincha ingliz tili deyilganda Amerika va Britaniya variantlari nazarda tutiladi. Biroq boshqa mintaqalardagi aksent va variantlar ham til rivojida muhim o'rin tutadi.



**Date: 28<sup>th</sup> February-2026**

Avstraliya ingliz tili. Avstraliya ingliz tili (Australian English) talaffuzi bilan ajralib turadi. Unda unli tovushlar cho'zilib talaffuz qilinadi va ayrim so'zlar qisqartma shaklda ishlatiladi. Masalan, "afternoon" so'zi kundalik nutqda "arvo" tarzida "barbecue" esa "barbie" shaklida qo'llanilishi mumkin. Avstraliya ingliz tili Britaniya asosida shakllangan bo'lsa-da o'ziga xos fonetika tizimiga ega.

Kanada ingliz tili. Kanada ingliz tili Britaniya va Amerika variantlari o'rtasida o'xshashliklarni mujassamlashtirgan. Imlo jihatdan ba'zan Britaniya shakllari (colour), talaffuz va leksika jihatdan esa Amerika variantga yaqinligi kuzatiladi. Kanada ingliz tilida ayrim unli tovushlarning o'ziga xos talaffuzi mavjud bo'lib, bu hodisa "Canadian raising" deb ataladi.

Hind ingliz tili (Indian English). Hindiston ingliz tili rasmiy tillardan biri hisoblanadi va keng qo'llaniladi. Hind ingliz tilida mahalliy tillar ta'siri kuchli seziladi. Talaffuzda retrofleks undoshlar, ritm va ohangning o'ziga xosligi kuzatiladi. Leksik jihatdan ham farqlar mavjud: masalan, "prepone" (uchrashuv vaqtini oldinga surmoq) kabi so'zlar Hind ingliz tiliga xosdir. Bu variant mustaqil lingvistik sifatida shakllanib bormoqda.

Afrika mintaqasidagi ingliz tili. Nigeriya, Janubiy Afrika va boshqa Afrika davlatlarida Ingliz tilining o'ziga xos variantlari mavjud. Nigeriya ingliz tilida mahalliy tillar ta'siri ostida yangi iboralar va talaffuz shakllari paydo bo'lgan. Janubiy Afrika ingliz tilida esa ingliz va afrikaans tillari o'rtasidagi o'zaro ta'sir seziladi. Bu variant mahalliy va madaniy tarix bilan chambarchas bog'liq.

Singapur va Janubiy-Sharqiy Osiyo ingliz tili. Singapur ingliz tili (Singlish) ingliz, xitoy, va malay tillari aralashuvi natijasida shakllangan. Unda grammatik soddalashuv va o'ziga xos ohang mavjud. Masalan gap oxirida "lah" yuklamasining qo'llanilishi Singapur ingliz tiliga xos xususiyatidir. Bu variant rasmiy ingliz tilidan farq qilsa-da kundalik muloqatda keng qo'llaniladi.

Aksent tushunchasi va fonetik xilma-xillik. Aksent-bu so'z va tovushlarning talaffuz uslubi bo'lib, u nuqta egasining geografik yoki ijtimoiy kelib chiqishini ko'rsatadi. Ingliz tilida aksentlar juda xilma-xil. Masalan, Irlandiya va Shotlandiya aksentlari Britaniya ichida ham sezilarli farqlarga ega. Amerika hududida ham Janubiy (Southern), Nyu-York yoki Kaliforniya aksentlari o'zaro farqlanadi.

Osiyo va Afrika mintaqalarida ingliz tilining talaffuzi mahalliy fonetik tizim ta'sirida shakllanadi. Bu esa ingliz tilining global, moslashuvchan va dinamik til ekannini ko'rsatadi. Aksentlarning mavjudligi tilning boyligi va madaniy xilma-xilligini ifodalaydi.

Leksik va grammatik o'ziga xosliklar. Turli mintaqalarda ingliz tilining so'z boyligi madaniyat bilan boyib boradi. Masalan, Avstraliya tabiiy muhitga oid ko'plab so'zlar mahalliy aborigen tillaridan kirib kelgan. Hindiston esa Ingliz tiliga hind va urdu tillaridan o'zlashmalarga qo'shilgan. Grammatik jihatdan ayrim variantlarda soddalashu jarayoni kuzatiladi. Masalan, Singapur ingliz tilida ayrim yordamchi fe'llar tushirib qoldirishi mumkin. Biroq bu holat tilning buzulishiga emas, balki uning mintaqaviy rivojlanish jarayonidir.



**Date: 28<sup>th</sup> February-2026**

Ingliz tilining kelajagi va global ahamiyati. Bugungi kunda ingliz tili xalqaro muloqot vositasi sifatida o'z mavqeini saqlab qolmoqda. Biroq u yagona "to'g'ri" shaklga ega emas. Aksincha, ingliz tili turli hududlarda turlicha talaffuz qilinadi va qo'llaniladi. Bu holat ingliz tilning moslashuvchanligini va global til sifatidagi kuchini namoyon etadi.

Kelajakda ingliz tilining yangin variantlari paydo bo'lishi va mavjud aksentlarning yanada mustahkamlanilishi kutilmoqda. Shunday ekan, Ingliz tilini o'rganishda faqat Britaniya yoki Amerika standardiga emas, balki dunyo ingliz tillari xilma-xilligiga hsm e'tibor qaratish muhimdir.

**Xulosa** qilib aytganda, Ingliz tili bugungi globallashuvi davrida xalqlar o'rtasidagi asosiy aloqa vositasiga aylangan. Uning turli mintaqalarda shakllangan aksent va variantlari tilning boyligi hamda madaniy xilma-xilligini aks ettiradi. Ingliz tilining global maqomi aynan uning moslashuvchanligi va ko'p markazli rivojlanishiga bog'liqdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Crystal, D. (2003). *English as a Global Language*. Cambridge: Cambridge University Press
2. Crystal, D. (2012). *English Worldwide*. Cambridge University Press
3. Kachru, B. B. (1985). *Standards, Codification and Sociolinguistic Realism: The English Language in the Outer Circle*. Cambridge University Press.
4. Ixtiyor Bazarov. Classification of terms related to the field of education in english according to lexical-morphological and lexical-semantic structure. *International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS)* 2025
5. Jenkins, J. (2015). *Global Englishes: A Resource Book for Students*. London: Routledge.
6. Schneider, E. W. (2007). *Postcolonial English: Varieties around the World*. Cambridge: Cambridge university Press.
7. Ihtiyor Rakhmatullaevich Bazarov. The terminological units in the field of linguistics and didactics according to their structure. *International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS)*. 2023
8. Seidlhofer, B. (2011). *Understanding English as a Lingua Franca*. Oxford: Oxford University Press.

